QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA 5–6-SINF O‘QUVCHILARINING BADIIY-IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY MASHQLARNING AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.001

Ibadullayev Saburjan Egamberganovich,
Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti.
San’at kafedrasi o‘qituvchisi. O’zbekiston.Urganch.
saburzani@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim maktablarining 5–6-sinflarida tasviriy san’at darslari jarayonida o‘quvchilarning badiiy-ijodiy faolligini rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy-ijodiy faollik tushunchasining mazmuni ochib berilib, unga ta’sir etuvchi pedagogik omillar aniqlangan.Maqolada sezgi va idrokni rivojlantiruvchi, fantaziyani rag‘batlantiruvchi, kompozitsion izlanishga yo‘naltirilgan, hikoya asosidagi, shuningdek kollaj va aralash texnikalardan foydalanishga asoslangan ijodiy mashqlar tizimi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at ta’limi, badiiy-ijodiy faollik, kreativ fikrlash, 5–6-sinf o‘quvchilari, ijodiy mashqlar tizimi, kollaj, aralash texnikalar, kompozitsion yondashuv, estetik tarbiya

Аннотация.В статье научно-теоретически и практически анализируется проблема развития художественно-творческой активности учащихся 5–6 классов общеобразовательных школ в процессе уроков изобразительного искусства. Раскрывается содержание понятия художественно-творческой активности и определяются педагогические факторы, влияющие на её формирование. В статье предлагается система творческих заданий, направленных на развитие ощущений и восприятия, стимулирование фантазии, композиционные поиски, работу на основе сюжетов, а также использование коллажа и смешанных техник.

Ключевые слова:Изобразительное искусство, художественно-творческая активность, креативное мышление, учащиеся 5–6 классов, творческие упражнения, коллаж, смешанные техники, композиция, эстетическое воспитание

Annotation. The article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the problem of developing artistic and creative activity of students in grades 5–6 during visual arts lessons in general secondary schools. The content of the concept of artistic and creative activity is revealed, and the pedagogical factors influencing its development are identified. The article proposes a system of creative tasks aimed at developing sensory perception, stimulating imagination, encouraging compositional exploration, story-based activities, as well as the use of collage and mixed techniques.

Keywords: Visual arts education, artistic and creative activity, creative thinking, 5th–6th grade students, creative exercises, collage, mixed media techniques, composition, aesthetic education

Kirish. Tasviriy san’at, ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida, nafaqat o‘quvchilarning badiiy ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. 5–6-sinf o‘quvchilari o‘sish davrida bo‘lib, ularning kognitiv, hissiy va psixomotor qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Shu bilan birga, ushbu yosh guruhida badiiy-ijodiy faollikning yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi kuzatiladigan dolzarb muammolardan biridir. Badiiy-ijodiy faollik deganda nafaqat chizish, bo‘yash kabi amaliy harakatlar, balki tasavvur qilish, g‘oyalar yaratish, estetik baholash va original yondashuvlarni ishlab chiqish kabi kompleks jarayonlar tushuniladi.

Tasviriy san’at har qanday samarali faoliyat turi kabi, ijodiy faoliyatda bolalar o‘rtasidagi har xil turdagi o‘zaro ta’sirni modellashtirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi, bu burch, mas'uliyat hissini, guruh talablariga bo‘ysunish qobiliyatini rivojlantiradi. Jamoada ijodiy ishlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish hissi shakllanadi. Rasm chizish jarayonida maktab o‘quvchilarida fazoviy tasavvur yanada jadal rivojlanadi, fikrlashdan harakatga tez o‘tish, o‘z ishining borishi haqida oldindan o‘ylash, uni rejalashtirish, harakatlarning aniqligi, epchilligi shakllanadi va rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tadqiqotimizni yoritishda O’zbekistonlik olimlardan B.B.Baymetov, S.S.Bulatov, S.S.Abdullayev, N.X.Tolipov, Q.Q.Qosimov, R.X.Xasanov B.B.Azimov va S.Abdirasilovlarning o‘quvchilarning mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatini tashkil etish, ularning ijodiy salohiyatini shakllantirishning samarali yo'llari va o‘quvchilarning ongli, faol va mustaqil ishlashi masalalariga doir fikr-mulohazalariga tayandik.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, o‘rta maktabning 5-6 sinflarida tasviriy san’at darslari o‘quvchilarni an’anaviy usullar bilan, ko‘pincha namunani qayta chizish, nusxa ko‘chirish yoki standart mavzularda ishlash bilan cheklab qo‘yishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ijod qilish imkoniyatini qisqartiradi, ularning kreativ potensialini to‘liq ochishga to‘sqinlik qiladi. Muammoning yana bir jihati shundaki, ko‘p hollarda dars jarayonida qo‘llaniladigan

mashqlar yoki vazifalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi mumkin. 5–6-sinf o‘quvchilari uchun murakkab anatomik chizmalar yoki g‘oyaviy mavzular qiyinchilik tug‘dirishi, aksincha, juda oddiy va takroriy mashqlar esa qiziqishni yo‘qotishi mumkin. Shu sababli, badiiy-ijodiy faollikni rivojlantirishda yosh psixologiyasini hisobga olgan holda, turli xil va qiziqarli mashqlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Badiiy-ijodiy faollikning past darajada bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar qatoriga darslarning qat’iy rejalashtirilganligi, natijaga bo‘lgan haddan tashqari e’tibor, xatolardan qo‘rqitish, baholash tizimining qat’iyligi va materiallar yoki usullarning cheklanganligi kiradi.

O‘quvchilarning badiiy-ijodiy faolligini baholashda ularning ishlarida g‘ayrioddiy yechimlar, ranglar uyg‘unligi, kompozitsion yondashuv, mavzuning ifodasi va hissiy jozibadorlik kabi mezonlar muhim hisoblanadi. Amalda esa, ko‘pincha, texnik mukammallik yoki aniqligiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Bu esa o‘quvchilarni tajriba qilishdan, yangi usullarni sinab ko‘rishdan qaytaradi, chunki ular xato qilishdan yoki “noto‘g‘ri” deb baholanishidan cho‘chishadi. Natijada, ularning asarlari shablonga aylanadi, shaxsiy ifoda sustlashadi. Demak, muammoning mohiyati shundaki, mavjud dars tizimi va metodikasi o‘quvchilarning badiiy-ijodiy faolligini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan mos muhitni yaratishda yetarli samaradorlikka ega emas.Bu holat nafaqat tasviriy san’at sohasidagi bilim va ko‘nikmalarning sifatiqa, balki o‘quvchilarning umumiy kreativligi, muammolarni hal qilish qobiliyati va o‘z fikrlarini erkin ifoda etish darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limning zamonaviy talablari esa, aksincha, o‘quvchilarning faol, mustaqil, ijodiy fikrlovchi shaxslar sifatida shakllanishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san’at darslarini tashkil etishda an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, darslarni yanada qiziqarli, rag‘batlantiruvchi va ijodga undovchi qilish zarurati mayjud. Ayniqsa, o‘rta sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning qiziqishlarini uyg‘otadigan, tajriba orttirishga imkon beradigan va o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda erkinlik hissi beradigan mashqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Muammo mavjud dars amaliyotida 5–6-sinf o‘quvchilarining badiiy-ijodiy faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan turli xil metodik vositalarning yetarli darajada qo‘llanilmaganligida yotadi. Bu esa o‘quvchilarning kreativ salohiyatini to‘liq ochib berish imkoniyatini cheklab qo‘yadi, natijada tasviriy san’at darslari o‘quvchilar uchun qiziqarsiz, takroriy faoliyatga aylanib qolishi mumkin. Muammoni hal qilish uchun darslarni tashkil etishning yangi usullarini, ayniqsa, turli xil mashqlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash zarur.

5-6 sinf o‘quvchilarining badiiy-ijodiy faolligini rivojlantirishda turli xil mashqlardan foydalanish samarali yechim bo‘lishi mumkin. Mashqlar tizimi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo‘lishi kerak: yosh psixologiyasiga moslik, qiziqarllik, bosqichma-bosqich

murakkablashuv, erkinlik va tajriba imkoniyati, shaxsiy ifodani rag‘batlantirish. Ushbu tamoyillar asosida quyidagi toifalarga bo‘lingan mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu toifadagi mashqlar o‘quvchilarning atrof-muhitni sezgi organlari orqali chuqurroq idrok etishiga qaratilgan. Masalan, “Ko‘zlarimizni yumib sezamiz” nomli didaktik o‘yinida o‘quvchi ko‘zini yumib, unga berilgan ob’ektni (meva, gul, shaklli buyum) faqat qo‘llari bilan tekshirib, uning shakli, sirti, hajmini his qiladi, so‘ngra ko‘zini ochib, o‘sha hissiyotlar asosida uni qog‘ozga chizadi. Bu mashq nafaqat sezgilarni o‘tkirlashtiradi, balki ob’ektni an’anaviy ko‘rinishidan tashqari, uning mazmuniy jihatlarini ifodalashga undaydi. “Tovushlarni rangga aylantiramiz” nomli didaktik o‘yinda o‘quvchilar musiqiy asar yoki tabiat tovushlarini eshitib, ularga o‘ziga xos ranglar va shakllar berishadi. Bu mashq bolalarda turli sezgilarni rivojlantiradi, chunki o‘quvchi tovush sifatlarini vizual obrazlarga aylantirishga harakat qiladi. Bu toifada g‘ayrioddiy vaziyatlar, mavhum tushunchalar yoki to‘liq bo‘lmagan shakllarni rivojlantirish talab etiladi.

“Agar hayvonlar inson kiyimlarini kiyganida” mavzusida komik rasmlar chizish, “Keling, bulutlardan nimalarni ko‘ramiz” mashg‘ulotida turli xil bulut shakllariga asoslanib, ularni ma’lum mavzu yoki personajlarga aylantirish kabi mashqlar yosh fantaziyani rag‘batlantirishi mumkin. “Begona sayyoralarda hayot” mavzusi ostida o‘quvchilar o‘z tasavvurlaridagi ekzotik muhit, mavjud bo‘lmagan jonzotlar va o‘simliklarni tasvirlashlari mumkin. Bunda muhim jihat –o‘quvchilarga qat’iy chegaralar qo‘ymaslik, balki ularning g‘oyalarini erkin ifoda etishlariga yo‘l ochishdir.

Turli kompozitsion mashqlar o‘quvchilarga turli kompozitsion yechimlar va badiiy usullarni sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Masalan, bir xil mavzuni (masalan, “daraxt”) turli uslublarda – impressionistik, kubistik, abstrakt uslublarda tasvirlash,yoki bir xil predmetni turli kompozitsiyalarda (markaziy, diagonal, simmetrik) joylashtirish. Rangshunoslikka doir mavzularda esa o‘quvchilar faqat issiq yoki faqat sovuq ranglardan foydalanishi, yoki ularning kontrast kombinatsiyalarini sinab ko‘rishi mumkin. Bunda texnik mukammallik emas, balki ifodaviylik va eksperiment muhim hisoblanadi. Hikoya va ketma-ketlikni ifodalovchi mashqlar orqali o‘quvchilar nafaqat bir lahzani, balki vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan voqelikni ham tasvirlashni o‘rganadilar.

“Kunimning uch lahzasi” mavzusida ertalab, peshin va kechqurun vaqtlari tasvirlarini chizish, yoki “Gullar o‘smoqda” mavzusida (masalan, pichandan gulga qadar jarayon) bir necha bosqichda hikoya qilish. Bu mashqlar mazmunni tushunish va uni vizual tilda bayon qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

5–6-sinf o‘quvchilari uchun qalam yoki bo‘yoqdan tashqari boshqa materiallar bilan ishlash ham tavsiya qilinadi. Turli materiallar – rangli qog‘oz, gazeta parchalari, mato, ip, tabiiy materiallar (barg, po‘stloq) dan foydalangan holda kollej yaratish yangi hissiyotlar beradi. “Mening sehrli shahrim” mavzusida turli fakturali materiallardan foydalanib kompozitsiya

ishlash mashg‘ulotlari o‘quvchilarning standart bo‘lmagan yondashuvni rag‘batlantiradi. Guruhli ijodiy mashqlar ham o‘quvchilar uchun juda qiziqarli bo‘ladi. Masalan, katta formatli qog‘ozlarda jamoa bo‘lib ishlash, har bir o‘quvchini umumiy kompozitsiyaga o‘z hissasini qo‘shishi ham badiiy-ijodiy faollikni oshiradi. Bunda o‘quvchilar bir-birining g‘oyalariga hurmat bilan qarashni, hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar. Masalan, “Bizning afsonamiz” mavzusida har bir o‘quvchi hikoyaning bir qismini tasvirlashi mumkin. Ushbu mashqlarni amalga oshirishda o‘qituvchining roli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, rag‘batlantiruvchi va muhit yaratuvchi sifatida o‘zgarishi kerak. O‘quvchilarning har bir izlanishi, hatto xato deb hisoblangan yondashuvi ham ijodiy harakat sifatida qadrlanishi lozim. Baholash tizimi ham jarayonni, ijodiy izlanishni, original fikrni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Yechim esa turli xil, yosh xususiyatlariga mos, qat’iy natija talab qilmaydigan, balki izlanish va tajribaga asoslangan mashqlar tizimini doimiy ravishda dars jarayoniga tatbiq etishdan iborat bo‘ladi. Bu yondashuv nafaqat badiiy-ijodiy faollikni, balki o‘quvchilarning o‘ziga ishonch, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at darslarida 5–6-sinf o‘quvchilarining badiiy-ijodiy faolligini rivojlantirish muammosi mavjud an’anaviy metodikaga qaraganda yanada differensial, kreativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Ushbu yosh guruhining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning tabiiy qiziquvchanligi, fantaziyasi va o‘ziga xoslikni namoyon etish istagini qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish muhimdir. Yuqorida tavsiya etilgan turli toifadagi mashqlar – sezgilar va idrokni rivojlantiruvchi, fantaziyani rag‘batlantiruvchi, kompozitsion tajribaga yo‘naltirilgan, hikoya qiluvchi, aralash texnikalar va guruhli ijodni o‘z ichiga olgan mashqlar tizimi bu yo‘lda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Ushbu yondashuvning asosiy ustunliklari shundaki, u o‘quvchilarni shablon yechimlardan ozod qiladi, tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi, shaxsiy ifoda usullarini topishga yo‘l ochadi va nihoyat, san’atni faol, qiziqarli va shaxsiy jihatdan mazmunli faoliyat sifatida idrok etishga yordam beradi. O‘qituvchi uchun esa bu metodika darslarni yanada boyitish, har bir o‘quvchining individual salohiyatini ochish va sinfdagi ijodiy muhitni yanada jonlantirish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Kelajakda ushbu metodikani takomillashtirish borasida turli maktab sharoitlarida uni qo‘llash samaradorligini o‘rganish, o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, shuningdek, badiiy-ijodiy faollikni baholashning sifat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta’kidlash kerakki, badiiy-ijodiy faollikni rivojlantirish nafaqat kelajakda rassomlar tayyorlash uchun, balki har qanday soha mutaxassisi uchun zarur bo‘lgan kreativlik, moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarni

shakllantirish uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Demak, tasviriy san’at darslarida turli xil mashqlardan foydalanish orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining badiiy-ijodiy faolligini oshirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, uni amalga oshirish bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xadjayev R.“Ta`limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent. 2020.
2. Hasanov R. Amaliy bezak san’ati mashg`ulotlari metodikasi.Guliston.,2003.
3. Rostovtsev N. N. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi: talabalar uchun darslik. - 3-nashr, qo‘shimcha va qayta ishlangan – M.: AGAR, 2000.
4. Saburjan Ibadullayev**.** Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining tasviriy san’at darslarida ijodiy mustaqilligini rivojlantirish. Badiiy ta’lim va pedagogika.-2024.№ 4. ISSN 3030-3869. 74-79 b.
5. Egamberganovich I. S. Хива naqqoshlik san’ati ustalarning merosi va hunarlarini yoshlarga o‘rgatish orqali ularning ma’naviyatini shakllantirish //Sustainability of education, socio-economic science theory. – 2024. – T. 2. – №. 14. – C. 84-87.
6. Ibadullayev Saburjan Egamberganovich. Badiiy ijodni shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st October, 2024)–INDIA, New Delhi: "CESS",2024.Part26.25-27b. https://interoncof.com/index.php/india/issue/view/
7. Ибадуллаева,Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. *Общество и инновации*. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp55-62.
8. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, issue 6.collection b june 2023. 42-46 betlar. https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50